
«SOG'LOM HAYOT UCHUN 5000 QADAM»

Toshloq tumanida "Mahalla yettiligi" ishtirokida «Sog'lom hayot uchun 5000 qadam» shiori ostida ommaviy yurish marafoni o'tkazildi.

Sog'lom turmush tarzini keng joriy qilish, aholi ayniqsa yoshlarni sportga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish maqsadidagi piyoda yurish aksiyasi tuman markazida bo'lib o'tdi.

Aholi o'rtasida sportni ommalashtirish, sog'lom turmush tarzini qaror topdirish, piyoda yurishning ahamiyatini targ'ib qilishda bu kabi tadbirlarning ahamiyati katta. Zero, kishining sog'lom va tetik bo'lishi faol turmush tarziga ham bog'liq.

2024-03-30 09:37:14